SOVET DAVRIDA DINIY TA'LIM

Mardonov Zokirjon Aliqul o'g'li
Tashkent International University of Education magistranti
+998946990070

Received: 25.10.2025
Revised: 26.10.2025
Accepted: 27.10.2025

O'zbek xalqining milliy, madaniy qadriyatlari asrlar davomida islom dini bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lib kelgan. Din ma'naviy va moddiy turmushda muhim rol o'ynab, XX asr boshlarida ham o'zining ta'sirchan kuchini saqlab qolgan edi.

Sovet hokimiyati o'zining dastlabki yillarida inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator tarixiy hujjatlar qabul qildi. Rasmiy hujjatlarda, qaror va farmonlarda barcha xalqlarning tengligi, o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi, vijdon erkinligi kabi insoniy huquqlar tan olindi. Biroq, sovetcha tartiblarni o'rnatish va mustahkamlash davridayoq bolsheviklar mahalliy aholining diniy tuyg'ularini poymol qildilar. Yevropa millatiga mansub ming-minglab qizil askarlarning Turkiston o'lkasiga safarbar etilishi oqibatida masjid va madrasalar vayron qilindi. Mahalliy aholining urf-odatlaridan xabarsiz bo'lgan «qizil bosqinchilar» diniy muassasa va tashkilotlarni otxonalarga, qurol-yarog', oziq-ovqat omborlariga, harbiy qismlarning kazarmalariga aylantirdilar. Oxir-oqibatda diniy tuyg'ulari poy-mol qilingan xalqning sovet hokimiyatiga bo'lgan umidlari va ishonchi so'ndi. Dastlabki yillardayoq dindor kishilar va ruhoniylar sovet hokimiyatining dushmani sifatida ta'qib ostiga olindi. 1917-1920 yillarda sovet hokimiyatining dinga munosabati daxriylikdan iborat bo'lgan edi. Biroq, Turkiston o'lkasidagi iqtisodiy va siyosiy vaziyat sovet hokimiyati organlariga bu masalada ehtiyotkorlik bilan ish tutish zarurligini ko'rsatdi.

Avvalo, imon-e'tiqodi oyoq osti qilingan musulmon aholi sovet hukumatiga qarshi ayovsiz qurolli kurash maydoniga kirdi. Ikkinchidan, tinimsiz davom etgan qurolli to'qnashuvlar o'lkada ocharchilikni keltirib chiqardi va xo'jalikni butunlay izdan chiqardi. Diniy muassasa va tashkilotlarning moddiy tayanchi bo'lgan vaqf mulklarining bolsheviklar tomonidan davlat hisobiga musodara qilinishi ular faoliyatining deyarli to'xtab qolishiga olib keldi.

Turkistondagi aholi ancha qismini vaqfkor dehqonlar tashkil etib, ular o'zlarining tirikchilik manbaidan ajralib qolgan edilar. Maorif va madaniyat muassasalari ham vaqfdan keladigan daromad xisobidan ta'minlanardi. Ushbu o'ziga xos jihatlarni hisobga olgan sovet hukumati vaqflarni diniy muassasalar ixtiyoriga qaytarish, dindorlarga bir qadar erkinlik berish, Madrasa mudarrislari va masjid imomlaridan ta'lim tizimini qayta izga solishda foydalanishga majbur bo'ldi. Shu

sababli 1922-1923 yillarda vaqflar diniy muassasa va tashkilotlarga qaytarildi va ular faoliyatiga ruxsat berilgandi.[1]

XX asrda Sovet Ittifoqi jamiyatida yuz bergan nihoyatda murakkabliklar O‘zbekiston tarixida alohida iz qoldirdi. Hukumat din sohasida, xususan, islomga nisbatan turli xil islohotlarni amalga oshirdi. Vaziyat shundan iborat ediki, islom “ezilgan Sharqiy hududlarda madaniy tushunchasi bu vaziyatni o‘zgartirish uchun yetarli bo‘lmaganlarni ekspluatatsiya qilish va nazorat qilish uchun foydalanilishi mumkin bo‘lgan ishonchli ma’naviy qurol” sifatida talqin etildi. Bu jarayon Sovet davrida boshlandi.

Bolshevik rejimi o‘rnatilgandan so‘ng, din hukumatning asosiy dushmani deb hisoblandi va asosida marksizm va leninizm g‘oyalari hamda odamlar o‘rtasida tenglikni targ‘ib qilish yotgan ateistik jamiyatni yaratishga qaratilgan mafkura ilgari surildi. Rejim ming yillar davomida shakllanib kelgan va ularning hayot tarzining ajralmas qismiga aylangan aholining diniy manfaatlarini hisobga olishni rad etdi. Ilmiy kommunizm asoschilari “Din — xalqning afyuni” va “Sovetlar sifatida sizning vazifangiz — bolalarning ongini qorong‘ilashtiradigan eski usuldagi maktablarni tugatish va yangi sovet maktablarini qurishdir” shiorlari ostida din va diniy ta’limga qarshi turli siyosiy harakatlarni uyushtirdilar. Bu jarayon diniy va ilohiyot olimlarining repressiyasiga, 1927–1928 yillar oralig‘ida arab yozuvining bekor qilinishiga, masjidlar va madrasalarning tarixiy qadriyat sifatida yo‘q qilinishiga, mintaqalarning madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan eski usuldagi maktablar va madrasalarning tugatilishiga, shuningdek, Militant Ateistlar Jamiyati bo‘limlarining tashkil etilishiga olib keldi.

O‘sha davrning xususiyatlari tarixiy manbalarda va ilmiy adabiyotlarda aks etgan. Sovet davrida islom tarixi bilan shug‘ullangan tadqiqotchilar bu davrning qarama-qarshiliklari yuzasidan turlicha fikrlarga ega. Ularning tadqiqotlari, islom va uning ahvoliga bag‘ishlangan bo‘lib, tanqidiy va qarama-qarshi yondashuvlarni ilgari surgan. Masalan, Y. Abdullaevning fikricha, Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoni bosib olgandan keyin, chor ma’muriyati islom diniy maktablarining faoliyatiga hech qachon aralashmagan, chunki ular chor ma’muriyatining mustamlakachilik siyosati talablariga javob bergan. Aksincha, rus hokimiyatlari agar ular hukumat homiyligidan voz kechsalar, ular asta-sekin yopilishini qayd etishgan.[2]

Shuningdek, masjid va madrasalar e’tiborsizlik tufayli yaroqsiz holga keldi. Madrasalar tuzilmasiga putur yetkazgan yana bir holat qozilarni tayinlash masalasi edi. Ruslar o‘lkani bosib olganlaridan so‘ng shariat qonunlariga asoslanib ish ko‘ruvchi qozilar faoliyatini to‘xtatmagan bo‘lsa-da, biroq har bir viloyatga o‘zlari bir qozi tayinlashgan. Ilgari qozilarni xonlar tayinlaganlar, ularni tayinlashda taqvodorlikka, layoqatlilik va munosibligiga va xalq orasidagi obro‘siga ahamiyat berilgan. Rossiya hukmronligi davrida saylangan qozilarda esa hech qanday layoqat

[1] N. Ollomurodov, “Sovet hukumatining dinga nisbatan munosabati va uning ijtimoiy oqibatlari,” *Fan va Jamiyat*, №2 (2023). – B. 391-393

[2] Zulfiya Khalilova, “Soviet Ideology and Practice in Uzbek Madrasas,” in *Islam, State and Society in Central Asia* (Wiesbaden: Springer, 2018). – B. 224

qolmagan edi. Bundan tashqari, xalqning saylov huquqi ham bekor qilingan edi. Adolat izlagan xalq faqat o‘zlari istiqomat qiladigan hududdagi qozilarga arz qilishlari mumkin edi xolos. Oqibatda qozi va mullalarning obro‘siga putur yetdi. Bu salbiy holat madrasalarga ham ta’sir ko‘rsatmay qolmadi.

Chor Rossiyasining musulmon aholini kuchli nazorat va ta’qib qilish siyosati boshlandi. Ayniqsa, tariqatlarning xalqqa ta’siri va bir-biriga o‘ta sodiq tizimga egaligi ommani tuzumga qarshi safarbar etish salohiyatiga ega bo‘lgani sababli ular chor Rossiyasida ham, sovetlar davrida ham kuchli nazorat va bosim ostida tutilgan.

Bizning fikrimizcha, din olimlari va musulmon xalq ko‘plab tazyiqlarga qaramay, mustamlakaning dastlabki davrlarida maktab va madrasalar sonini ko‘paytirishga harakat qilganligi ijtimoiy ongda diniy dunyoqarashning ustuvorligidan dalolat beradi. Sovetlar bunga javoban din va dindorlarga qarshi bosimni yanada kuchaytirdilar.

Dinning o‘rnini egallashi kutilgan ateizm uchun tizimli ravishda propaganda faoliyati boshlandi va bu holat sovet tuzumining oxirgi yillariga qadar davom etdi. Ateistik propagandaga ko‘ra, fan va din orasida bevosita va aniq qarama-qarshilik bo‘lgan va din aqlga butunlay teskari deb e’tirof etilgan. Ateistik yondoshuvga ko‘ra, din insonlar tomonidan tabiatni tushuna olmaslik va barcha tabiat hodisalarini metafizik tushunchalar orqali tushuntirish, insoniyatning ibtidoiy davrining bir mahsuli edi xolos.